

MANAGEMENT AND ECONOMICS
SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

MENEJMENT VA IQTISODIYOT
ILMIY-TADQIQOT JURNALI

НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ
ЖУРНАЛ МЕНЕДЖМЕНТА И ЭКОНОМИКИ

MUNDARIJA

Шарипов К.А., Хотамов И.С.	Основные направления развития «зелёной» энергетики в Узбекистане.....	2
Хашимов Б.А., Ахмедов Х.Д., Махкамова С.Г.	Совершенствование учета поступления и выбытия нематериальных активов по договору обмена в нефтегазовой отрасли Республики Узбекистан.....	10
Narbayev Sh.K., Sadullayev S.N.	Dehqon xo'jaliklarida yerdan foydalanish samaradorligining o'zgarish tendensiyalari.....	20
Nosirova N.J.	Reklama – marketing kommunikatsiyasining biznesga ta'siri.....	26
Samadov A.N.	Innovative Service Marketing: Russian Experience.....	34
Temirov A.A.	Prospects for digitalization of corporate governance in corporate structures of the Republic of Uzbekistan.....	42
Sobirov A.A.	Sanoat klasterlari – sanoat salohiyatini oshirishning strategik yo'nalishi sifatida.....	51
Rajabov N.R., Adilova M.T., Xasanova N.N.	Mintaqalar iqtisodiy-ekologik barqaror rivojlanishining tashqi va ichki tahdidlari.....	60
Azlarova M.A.	Waste management activities and methods.....	71
Кадирова И.Б.	Анализ состояния и тенденций развития свободных экономических зон в Республике Узбекистан.....	74
Fozilova F.K.	Importance of children's financial education and behavior	78
Фарходова Ш.Ш.	Новые тенденции развития современного менеджмента в цифровой экономике: проблемы и решения.....	83
Ostanaqulov X.M.	Sun'iy intellekt va avtomatlashtirishning iqtisodiy ta'siri: O'zbekiston misolida.....	87
Karrieva Y.K.	Ways of development of innovative logistics in Uzbekistan	95
Masharipova Sh.A.	Transport-logistika klasterlari faoliyati bo'yicha xorij tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.....	100
Xudayberdiyev O'.E	Mamlakatda qoramolchilik mahsulotlari marketingini rivojlantirish yo'nalishlari.....	111
Каримов В.А.	Қишлоқ хўжалиги маҳсулот ишлаб чиқаришида қишлоқ хўжалиги техникаларининг аҳамияти	116
Qahhorov Sh.G'.	O'zbekiston tijorat banklarining "muammoli kreditlari"	122
Муратов Ф.Д.	Конституция: ижтимоий адолатнинг кафолати.....	125
Karimova S. T.	Konstitutsiya – ishonchli kelajak va farovon hayot Qomusi	131
Arziqulov E.A.	Konstitutsiya farovon taraqqiyotimiz garovi.....	137
Azim Davron.	Jadid matbuoti: Ismoil Gasprali va Hamza Hakimzoda.....	142
Baxanurov O. O.	Digital Currencies and Central Banks: An Analysis from a National Economic Security Perspective	148
Akbarov Sh.X.	Raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali korxonalarda HR menejment tizimini takomillashtirish ("O'zbekiston temir yo'llar" AJ misoolida)	155
Kodirov S.Q.	Logistika va Iqtisodiyot	160

SANOAT KLASTERLARI – SANOAT SALOHIYATINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHI SIFATIDA

Sobirov Azizbek Avazbekovich

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti

Biznes boshqaruvi va moliya kafedrası

mudiri PhD, dotsent

Annotatsiya. Sanoat klasterlari milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim tarkibiy qismidir. Bugungi kunda klasterlarning asosiy maqsadi ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, paxta xomashyosini qayta ishlash sanoatini samarali rivojlantirishga yo‘naltirilgan an‘anaviy modelga xos bo‘lib, uni global qiymat zanjirida samarali faoliyatni ta‘minlash, innovatsiya va raqamli texnologiyalarga asoslangan Sanoat 4.0. konsepsiyasiga asoslangan xo‘jalik yuritishga imkon beruvchi modelga transformatsiyalash bu boradagi muhim vazifalardan hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: sanoat, sanoat klasterlari, strategiya, tarmoq va sohalar klasteri, klasterlar innovatsiyalari, ta‘minot tizimi, strategik boshqaruv, operatsion boshqaruv, innovatsiya.

Abstract. Industrial clusters are an important component of the development of the national economy. Today, the main purpose of the clusters is to modernize and diversify production, to effectively develop the cotton processing industry, to ensure effective operation in the global value chain, Industry 4.0 based on innovation and digital technologies. One of the important tasks in this regard is the transformation to a model that allows conducting business based on the concept of

Key words: industry, industrial clusters, strategy, industry and industry cluster, cluster innovation, supply system, strategic management, operational management, innovation.

Аннотация. Промышленные кластеры являются важной составляющей развития национальной экономики. Сегодня основной целью кластеров является модернизация и диверсификация производства, эффективное развитие хлопкоперерабатывающей отрасли, обеспечение эффективной работы в глобальной цепочке создания стоимости, Индустрии 4.0 на основе инноваций и цифровых технологий. Одной из важных задач в этой связи является переход к модели, позволяющей вести бизнес на основе концепции.

Ключевые слова: промышленность, промышленные кластеры, стратегия, промышленность и отраслевой кластер, кластерные инновации, система снабжения, стратегическое управление, операционное управление, инновации.

Kirish. Rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida ro‘y berayotgan integratsiyalashuvning kichik darajasi mamlakatlar iqtisodiyotida xo‘jalik yuritish tizimining innovatsion shakli hisoblangan, qo‘shilgan qiymatli, yakuniy mahsulot ishlab chiqaradigan va hududiy jihatdan o‘zaro yaqin bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarni o‘z ichiga olgan

klasterlarning shakllanishi bilan ahamiyatli. Klasterlarni yaratishdan maqsad hududiy yaqin joylashgan va ma‘lum bir sohaga ixtisoslashgan korxonalar va ular bilan yagona texnologik zanjirda bo‘lgan xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar (ta‘lim, ilmiy, injiniring, konsalting, standartlashtirish, sertifikat-

lashtirish va boshqa xizmatlar) faoliyatini uyg'unlashtirish orqali innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish asosida yuqori qo'shilgan qiymatli raqobatbardosh tovarlar yaratishga yo'naltirishdan iborat.

Jahon mamlakatlarining sanoat taraqqiyoti klasterlar bilan bog'liq ekanligi ilmiy va amaliy jihatdan o'z isbotini topgan. Tarmoq va sohalarni klaster asosida tashkil etish nafaqat raqobatbardoshlikni ta'minlash, balki innovatsion rivojlanishning asosiy drayveri sifatida qaraladi.

Klasterlar keskin raqobat sharoitida moddiy va moliyaviy resurslarni birlashtirib, innovatsion mahsulotlarni yaratadi, iqtisodiy samaradorlikka erishadi va yangi bozorlarga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Nazariyalarda klasterlar innovatsiyalar va bilimga asoslangan iqtisodiyot bilan bog'liq bo'lganligi sababli ularni shakllantirish mamlakatlar hududiy sanoatni rivojlantirish strategiyalarining ustuvor yo'nalishga aylangan (modaga) aylangan. Klasterlar — sanoat rayonlar, ilmiy markazlar, texnoparklar va ta'lim muassasalari, sanoat zonalari singari ko'plab infratuzilmaga ega va milliy innovatsion tizimlarni o'zida birlashtiruvchi yirik birlashmalar sifatida qaraladi [1].

Klaster nazariyasi bo'yicha tadqiqotlar 1950-yillardan keyingi sanoat iqtisodiyoti fanlarida tez sur'atlarda o'sib, uni mamlakatlar iqtisodiyoti va korxonalar amaliyotda qo'llash kengayib borgan. Mazkur yondashuv milliy va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish

hamda o'zaro munosabatlarga asoslangan raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy yo'nalishiga aylangan.

Klaster nazariyalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, ular asosan 3 ta muhim ilmiy maktablarda rivojlangan: Amerika, Britaniya, Skandinaviya va boshqa ilmiy maktablar. Amerika olimlari: M.Porter "raqobat ustunligi nazariyasi" [2], M.Enrayt, S.Rezenfeld, P.Maskell va M.Lorensenlarning "mintaqaviy klasterlar konsepsiyasi", A.Marshallning "Sanoat hududlari nazariyasi" [3], G.Bekatinning "Italiyan sanoat okruglari nazariyalari" [4], M.Storperning "Ideal" hududiy klaster" [5] nazariyalari shular jumlasidandir. Skandinaviyalik olimlar (B.O.Lundval, B.Yonson, B.Asxaym, A.Izaksonlar) – klasterning evolyutsion rivoji bir qator bosqichlardan o'tishi, ya'ni "tug'ilishidan tugagunicha" – bu shundan dalolat beradiki, evolyutsion nazariya imkoniyatidan foydalanish klaster nazariyasini bildiradi degan mulohazani ilgari suradi [6].

Klaster nazariyasining asoschisi Maykl Porter tomonidan klaster – geografik nuqtayi nazardan qo'shni bo'lgan, o'zaro bog'liq kompaniyalar (ishlab chiqaruvchilar, mahsulot yetkazib beruvchilar va boshqalar) hamda ularga aloqador xizmatlarni ko'rsatib, ma'lum sohada faoliyat yurituvchi tashkilotlar (ta'lim muassasalari, davlat boshqaruv idoralari, infratuzilmali kompaniyalar) guruhi", yoki klaster – ishlab chiqarish korxonalarini raqobatbardoshligini oshishiga imkoniyatlar yaratuvchi, o'zaro bevosita bog'langan tarmoqlarning yagona texnologik zanjirini tashkil

etuvchi hamjamiyatlar” degan g’oyani ilgari surgan [7].

O‘zbekistonda mazkur yo‘nalishlardagi ilmiy izlanishlar bo‘yicha ilk tadqiqotlar A.Sh.Bekmurodov va Yang Son Be tomonidan olib borilgan. Ular tomonidan “O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish strategiyasiga klaster yondashuvi”ga asoslangan tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotda O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining raqobatbardoshligini oshirish, xorijiy investitsiyalar salmog‘ini ko‘paytirish, mahsulotni bo‘yash bo‘yicha sanoat hududiy klasteri modelini Koreya Respublikasining Tegu shahridagi tajribaga asoslangan holda taklif etishgan [8].

Yuqorida keltirib o‘tilgan ilmiy tadqiqotlardan ma‘lum bo‘ladiki, O‘zbekiston sanoatini rivojlantirishda klaster amaliyotidan foydalanish eng muhim yo‘nalishidir. Tadqiqotlarda klasterlar nafaqat sanoatda qo‘shilgan qiymat yaratishga qaratilgan mexanizm, balki o‘zaro munosabatlarga asoslangan raqobatda ustunlik yaratish strategiyasi, innovatsion iqtisodiyotga o‘tish usuli, fan-ta‘lim-ishlab chiqarish uyg‘unligini ta‘minlovchi va mehnat unumdorligini oshirish vositasi sifatida qaralgan.

Biroq amalga oshirilgan tadqiqotlarning aksariyatida klasterlarning shakllanishi va rivojlanishi uchun yaratilishi lozim bo‘lgan infratuzilma, bozor muhiti, qonunchilik, klasterlarni boshqaruv shakli, marketingini tashkil etish masalalarini o‘rganishga bag‘ishlangan, umuman, sanoat klasterlarining yaralishi, rivojlanishi va hayotiy davrida uni bosh-

qarishning strategik yo‘nalishlari bo‘yicha aniq metodologik yondashuvlar ishlab chiqilmagan. Klasterlar iqtisodiy o‘sish, qiymat yaratish, raqobatda ustunlikning asosiy vositasi ekan, O‘zbekiston sanoatini klasterlashning ilmiy uslubiy va amaliy masalalari COVID-19 pandemiyasi sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etdi.

Metodologiya. Tadqiqot obyekti sifatida sanoat klasterlari faoliyati belgilab olingan. Tadqiqotda Sanoat klasterlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, sanoat salohiyatini oshirish yo‘llarini tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma‘lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullari qo‘llanilgan.

Tahlil va natijalar. Korxonalar yakka holda biznes yuritmaganidek, ular alohida holda innovatsiya ham yaratmaydi. Innovatsion muhit doimiy ravishda yangi mahsulotlar ishlab chiqarish va yangi bozorlarni ochish uchun zarur faoliyatdir. Sanoat klasterlari bilim va ma‘lumotlarni kodlashtirib bo‘lmaydigan almashish mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Tez o‘zgaruvchan global iqtisodiy muhitni hisobga olgan holda, bilimning bunday yashirin shakllari tobora muhim ahamiyat kasb etib borishini asoslaydi.

Yashirin bilimlar tadbirkorlik subyektlari emas, balki jismoniy shaxslar o‘rtasida almashinishi kerak, bu esa klasterlar afzalliklarini mustahkamlaydi. Bunday afzalliklar texnologiyani ko‘p talab qiladigan firmalar uchun mu-

him ahamiyatga ega. Ma'lum hududlarda klasterlash orqali moslashuvchanlik va innovatsiyalar qobiliyati yaxshilanishi mumkin. Mintaqaviy muhit xususiyatlari ham firmalarga innovatsiyalar kiritishga yordam beradi. Masalan, Silikon vodiysining innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun noyob imkoniyatlar mavjudligi klasterlash darajasining oshirilishi asosiy omili sifatida qaralgan.

Yuqoridagi tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida sanoat klasterlariga xos xususiyatlarning quyidagilardan iborat ekanligini aniqlash imkonini beradi: notekis taqsimlanish; funksional mezon; hamkorlikdagi xo'jalik yurituvchi subyektlar to'plami; umumiy axborot maydoni; ijtimoiy yo'naltirilgan ishlab chiqarish tizimi; nos-tandart hayotiy sikli; innovatsionlik, ishbilarmonlik obro'si.

1) Sanoat klasterlariga xos xususiyat notekis taqsimlanishdir. Klaster siyosati raqobatbardosh, innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi, birgalikda ishlashga rag'batlantirilgan va bir hududda mahalliyashtirilgan korxonalar guruh-lari kooperatsiyasini o'z ichiga oladi. Zamonaviy klaster tushunchalarining asosiy muammolaridan biri geografik chegaralarning zaif belgilanishidir. Sanoat klasterlarining hududiy taq-simoti bir mintaqadagi ishlab chiqarish majmualaridan mamlakatga va boshqa yaqin hududlarga qarab farq qiladi. Bundan kelib chiqib, turli mamlakatlar va turli hududlarda tashkilotning xusu-siyatlari turlicha. Fazoviy mezonning ba'zi jihatlari A.Marshall tomonidan aniqlangan: noyob resurslardan foy-

dalanish imkoniyati; xarajatlarni te-jashga asoslangan ta'minot zanjiri; yirik ishlab chiqarish tuzilmalarini birlash-tirish hisobiga yuqori umumiy ishlab chiqarish quvvati; eng qisqa vaqt ichidagi qaror qabul qiluvchi axborot tizimi, texnologik ishlanmalar alma-shinadigan umumiy axborot maydoni. Ko'rsatib utilgan afzalliklarga ega bo'lgan holda, klasterga a'zo korxonalar yangi tovar va xizmatlarni yaratish, yangi ishlab chiqarish zanjirlari va texnologik jarayonlarni shakllantirish uchun samaradorlikni sezilarli dara-jada oshirish va ishlab chiqarish fao-liyatini tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2) Funksional mezon. Sanoat klas-terlari turlicha mulkchilik shakllariga ega xo'jalik yurituvchi subyektlar integ-ratsiyasi bo'lib, har bir ishtirokchi o'z funksional vazifalarga ega. Klasterning barcha ishtirokchilari bir-biri bilan bog'langan, chunki ular bir xil faoliyat turi bilan shug'ullanadilar yoki iloji boricha yaqinroq o'xshash faoliyat tur-lari bilan shug'ullanadilar. Bu shunday korxonalarni bitta savdo bozori tar-kibiga kiritish yoki yagona ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilish bilan belgilanadi. Klasterda ishtirok etuvchi korxonalar axborot almashinuvi va amaliy hamkorlikni ustuvor hisob-lashadi. Shuni hisobga olish kerakki, ishlab chiqarish va innovatsion jara-yonlarni tashkil etishda klasterlar asosiy omil bo'lib, rivojlanishning keyingi bosqichlarida raqobatbardosh-likning oshishiga olib keladigan faoliyatning turdosh sohalari bilan bog'liq kompaniyalar o'ziga tortuvchi hisoblanadi. Klasterda ishtirok etuvchi kompaniyalarning o'zaro hamkorligi

xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi standart o'zaro munosabatlarga nisbatan ancha ko'p qirrali bo'ladi. Klaster shakllanishi, shu jumladan ara-

3) Ijtimoiy yo'naltirilganlik. Zamonaviy iqtisodiyotda hududlarning ijtimoiy sohalarini rivojlantirish davlatning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Ijtimoiy sohalar rivojlanishiga ta'sir etuvchi sanoat klasterlari hududiy muammolarni hal etishda asosiy vektor hisoblanadi. Chunki u murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yengishning muvaffaqiyatli mexanizmi ekanligini allaqachon isbotlagan. Ko'plab mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy sohaning rivojlanishi klasterlarning o'rni va ahamiyati ta'lim fan va madaniyatning yuqori ijobiy ta'siri kuzatilgan. Sanoat klasterlarini rivojlantirish yo'nalishlari va strategiyalari ishlab chiqishda ijtimoiy sohani yaxshilashga, mintaqa aholisining farovonligini oshirishga qaratilgan yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim. Klasterning vakolatli tashkiliy tuzilmasi butunlay boshqa ixtisoslikdagi korxonalarni jalb qilish markaziga aylanadi.

4) Xo'jalik yurituvchi subyektlar majmuasi. Klasterlarning shakllanishida turli kompaniyalar ishtirokining keng doirasi mavjudligini aniq ko'rsatadi. Biroq ularning mavjudligi deyarli sezilmaydi. Klaster kompaniyalarining tarkibi va funksiyalari birxillashib borsa, bunday kompaniyalar xolding kompaniyalariga aylanib ketadi. Bu xoldingda kompaniyalarning aksariyati asosiy kompaniyaning shu'ba korxonalari hisoblanadi. Sanoat klasterlari ishtirokchilarining asosiy toifalariga

lash yo'nalishlarda rivojlanishi mumkin, chunki klasterlarning funktsionalligini ma'lum bir sanoat bilan cheklab bo'lmaydi.

quyidagilar kiradi: ma'lum sanoat tarmog'iga ixtisoslashgan korxonalar; davlat va notijorat tashkilotlar; ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari; ta'minot va logistika tizimlari, texnologiyalar va butlovchi mahsulotlar yetkazib beruvchi korxonalar; tor ixtisoslashgan xizmat ko'rsatuvchi kichik firmalar va outsorsing firmalari; innovatsion infratuzilma bilan ajralib turuvchi kompaniyalar.

5) Klasterlarning nostandard hayotiy sikli. Klasterlar ham murakkab tizim sifatida shakllanishi, rivojlanish va tugallanuvchi bosqichlarga ega. Klasterlarning o'ziga xosligidan kelib chiqib, hayotiy davrlari farq qilishi mumkin.

6) Yuqori texnologiyali sanoat infratuzilmasi. Yuqori texnologiyali sanoat infratuzilmasi deganda strategik muhim ishlab chiqarish elementlari va texnologik jarayonlar tizimi tushuniladi. Klasterlar doimo raqobatda ustunlikni ta'minlash uchun yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni joriy etishga, texnik va tashkiliy shartsharoitlarni ta'minlashga ahamiyat qaratadi. Agar bunga e'tiborsizlik bilan yondashilsa, raqobatbardosh ustunliklari yuzaga chiqmaydi. Asosiy komponentlar sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin, kamida 10 ta sanoat korxonalari, shu jumladan kamida 1 tasi yakuniy mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bo'lishi; klaster korxonalarida mintaqadagi o'rtacha darajaga nisbatan yuqori mehnat unumdorligi; ish o'rinlarining yuqori ulushi;

uning har bir a'zosi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va butlovchi

7) Innovatsiyalar. Har bir sanoat klasteri a'zo korxonalarini yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish, innovatsiyalar yaratish, yuqori o'sish sur'atlariga intilishi, ilg'or rivojlanish yo'nalishiga rag'batlantirish va hududning iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Bunday rivojlanishga erishish uchun, ta'lim-fan va ilmiy tadqiqot loyihalarini amalga oshirishi, kichik innovatsion korxonalarini, texnoparklar yaratishi, innovatsion jarayonlarni takomillashtirishi, vinchur fondlari va intellektual kapitalini oshirib borishi lozim.

8) Ishbilarmonlik imiji. Klasterning ishbilarmonlik imiji hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda aks etadi. Imijga oddiy iste'molchilar ham, tahlilchilar ham yaqindan ta'sir ko'rsatadi.

"Sanoat klasteri" tushunchasining ta'rifi ham xilma-xildir. Eng radikal ta'rif shundan iboratki, klasterga faqat ilmiy tadqiqot institutlari, laboratoriyalar, texnoparklar va boshqa ilmiy tadqiqot subyektlari kiritilishi kerak. Shu bilan birga, har bir klasterning majburiy xususiyati bo'lgan ishlab chiqarish faoliyatini o'stirish va innovatsiyalarni joriy etishning yuqori salohiyatini hisobga olgan holda, fikrimizcha, ishlab chiqarish qobiliyati yuqori bo'lgan tarmoqlar bo'yicha tegishli ixtisoslikka ega sanoat klasterlari kiritilishi kerak. Klasterga xos maqom – klasterda sanoat korxonalaridan tashqari, turli ilmiy-ta'lim markazlari va innovatsion texnologik yutuqlarni

qismlar klasteridagi korxonalar tomonidan yuqori darajada foydalanilishi.

amalga oshiruvchi markazlar mavjud bo'lishidir.

Vertikal integratsiyalashgan tuzilmaga ega xoldinglarning klasterlardan asosiy farqi shundaki, klaster tashkilotlari to'liq singdirish yoki qo'shilish maqsadini ko'zlamaydi, balki ularning mustaqilligini saqlab qolishga yordam beruvchi o'zaro ta'sir mexanizmini shakllantiradi. Klaster ichidagi o'zaro ta'sir hamkorlik va raqobat, shu jumladan ta'lim va innovatsiyalar bilan bog'liq jarayonlar bilan tavsiflanishi mumkin.

Klasterlar bir necha sabablarga ko'ra innovatsion rivojlanish qobiliyatiga ega bo'ladi:

1. Klasterga a'zo kompaniyalar o'zgaruvchan ehtiyojlariga tezkor moslashuvchan bo'ladi.

2. Klasterlardagi korxonalar klaster bo'lmaganlarga nisbatan o'ziga xos resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

3. Ilmiy tadqiqot ish va innovatsiyalarni yaratish bo'yicha xarajatlardan ko'proq manfaatdor bo'ladi.

4. Klasterdagi kompaniyalar o'rtasida raqobat har birini kompaniyani ichki rivojlanishiga motiv beradi.

Yuqorida sanab o'tilgan ijobiy jihatlarga qaramay, raqobatning rivojlanishi klasterlarni inqirozli vaziyatlarga olib keladi. Shuning uchun har bir klaster o'ziga xos rivojlanish davriyligi va hayotiy sikliga ega.

Mualliflik yondashuvini ishlab chiqish uchun xalqaro ilmiy bazalardagi ma'lumotlarga ham tayanish muhim hisoblanadi.

<https://scholar.google.com/> — eng yirik ilmiy baza hisoblanadi. Unda “sanoat klasteri (industrial clusters)” iborasini qidiruv natijalari bo‘yicha so‘rovlarda quyidagi tushunchalar eng ko‘p qidirilgan tushunchalar sifatida namoyon bo‘ladi:

“industrial clusters innovatsion”- sanoat klasterlari innovatsiyasi;

“regional industrial clusters”- mintaqaviy sanoat klasterlari;

“technological industrial clusters”- texnologik sanoat klasterlari;

“industrial clusters province”- hududiy sanoat klasterlari;

“industrial clusters competitiveness” - sanoat klasterlari raqobatbardoshligi;

“industrial clusters enterprises”- sanoat klasterlari korxonalari;

“industrial clusters upgrading”- sanoat klasterlarini yangilash;

“industrial clusters porter”- Porterning sanoat klasterlari.

Keltirib o‘tilgan tushunchalardan ma‘lum bo‘ladiki, klasterlar bo‘yicha olib borilgan asosiy tadqiqotlar innovatsiya, hududiy yaxlitlik, texnologik infratuzilma, raqobatbardoshlik, korxonalarining ixtisoslashuv va M.Porterning nazariyalariga ahamiyat qaratilganidir. Keltirib o‘tilgan tushunchalar bo‘yicha so‘rov natijalari 1- jadvalda aks etgan.

1-jadval

Sanoat klasteri va unga yondash tushunchalarning “scholar.google.com” sayti orqali qidiruv natijalari statistikasi (2015-2024-yillar bo‘yicha)*

Ingliz tilidagi tayanch so‘zlar	O‘zbek tilidagi tayanch so‘zlar	Ingliz tilidagi tayanch so‘zlar bo‘yicha manbalar	O‘zbek tilidagi tayanch so‘zlar bo‘yicha manbalar
industrial clusters	Sanoat klasterlari	5 020 000	398
industrial clusters innovation	sanoat klasterlari innovatsiyasi	1 560 000	3
regional industrial clusters	mintaqaviy sanoat klasterlari	1 950 000	44
technological industrial clusters	texnologik sanoat klasterlari	1 680 000	54
industrial clusters province	sanoat klasterlari hududlari	475 000	-
industrial clusters competitiveness	sanoat klasterlarining raqobatbardoshligi	457 000	6
industrial clusters enterprises	sanoat klasterlari korxonalari	779 000	75
industrial clusters upgrading	sanoat klasterlarini yangilash	167 000	14
industrial clusters porter	Porterning sanoat klasterlari	16 900	13

* scholar.google.com sayti orqali qidiruv natijalari 2023-yilning 12-may xolatiga

Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ladiki, klasterlar innovatsiyalar yaratuvchi hududiy sanoat birliklari hisoblanib, ular ma'lum soha yoki tarmoqqa ixtisoslashgan, qo'shilgan qiymat zanjirini hosil qilish orqali raqobatda ustunlikni ta'minlashga intiluvchi korxonalar va xo'jalik yurituvchi subyektlar majmuasi sifatida qaralishi lozim.

"Sanoat klasteri" atamaları tahlil qilgandan so'ng, klaster "innovatsion", "texnologik", "raqobatbardoshlik" va "hududiy birlik yoki yakdillik" tushunchalari bilan uzviy bog'liqligi ayon bo'ladi. Bu klasterlar va vertikal integratsiyalashgan ishlab chiqarish tuzilmalari o'rtasidagi eng asosiy farq sifatida qaralishi mumkin.

O'zbekiston amaliyotida asosiy e'tibor vertikal integratsiyalashgan korxonalarni tashkil etish orqali qiymat yaratish nazarda tutilmoqda. Biroq bunday yondashuvdan foydalanish klasterlar shakllanishiga ma'lum darajada hissa qo'shsa-da, oxir-oqibatda monopollashuv darajasini oshirib va raqobat muhiti shakllanishiga ma'lum darajada cheklovlar qo'yishi mumkin.

1-jadval ma'lumotlarini e'tiborga olgan holda klasterlar uchun muhim bo'lgan quyidagi xususiyatlarni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq:

1) klasterlarda ishtirok etuvchi barcha korxonalarga xos xususiyatlar tarmoq va sohalarning ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda farqlanishi mumkin;

2) har bir alohida holatda klasterlardagi ba'zi belgilar boshqalarga nisbatan muhimroq, ba'zilari esa muhim bo'lmasligi ham mumkin;

3) innovatsion faollik barcha klasterlarda ham o'ziga xos xususiyat sifatida namoyon bo'lmasligi mumkin, masalan, uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasidagi klasterlar, turizm va rekreatsiya klasterlari, ta'lim sohasidagi klasterlar;

4) klasterlarning hayotiylik davri ham bozor sharoitlariga qarab farq qilishi mumkin. Ko'pincha, sanoat klasterlari o'z faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va davlat tomonidan boshqaruv ta'siri tufayli hayot siklining ba'zi bosqichlarini o'tkazib yuborishi mumkin bo'lgan holatlar mavjud.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tadqiqotlar, taklif etilayotgan xususiyatlar avtonom faoliyat yurituvchi ishlab chiqarish tuzilmalari sifatida tushuniladigan klasterlarni kengroq ma'noda qarash maqsadga muvofiq. Ishlab chiqarishni yaxshilash, raqobatda ustunlikni ta'minlash va innovatsion rivojlanishga yo'naltirilgan korxonalarining o'zaro manfaatli integratsiyalashuvini klaster sifatida qarash maqsadga muvofiq. Bunday yondashuvlardan kelib chiqqanda "sanoat klasteri" tushunchasining aniq mualliflik ta'rifini shakllantirishga yordam berdi. Yuqoridagi nazariy xulosalar asosida "sanoat klasteri-hududiy va funksional mezonlar asosida o'zaro bog'liq tizimda faoliyat yurituvchi, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish infrazuzilmasi va o'z nufuzga ega bo'lgan holda innovatsion mahsulot yoki xizmatlarni yaratish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi raqobatda ustuvorlik va qo'shilgan qiymat yaratishni nazarda tutuvchi hamjamiyatlardir" degan yondashuv taklif etiladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Christopherson S, Kitson M., Michie J. *Innovation, Networks and knowledge exchange*. Cambridge J Reg Econ Soc 2008; 1:165-173.
2. Портер М. *Международная конкуренция*. – М.: Международные отношения, 1993. С. 51.
3. Enright M. J. *Regional clusters and economic development; a research agenda // Business networks*. – 1996.
4. Маршалл А. *Принципы экономической науки, т. I – III. Пер. с англ.* – М.: Издательская группа “Прогресс”, 1993.
5. Becattini G. *From Marshall's to the Italian “Industrial districts”. A brief critical reconstruction //Complexity and industrial clusters: dynamics and models in theory and practice*. – Physica-Verlag HD, 2002. – С. 83-106.
6. Хакимов З.А. *Енгил саноат корхоналари рақобатбардошлигини маркетинг стратегиялари асосида ошириш. PhD илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация*. – Тошкент: ТДИУ, 2018 й.
7. Портер М., *Конкуренция Э. Пер. с англ.: уч. пос.* – М.: Издательский дом “Вильямс”, 2011.
8. Бекмурадов А.Ш., Янг Сон Бэ. *Стратегия развития текстильной промышленности Узбекистана. Кластерный подход*. – Ташкент, 2006.

Ingliz tili muharriri: Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi
Musahhih: Vahobova Marfua Mirkamalovna
Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

2024. 1-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "**Management and Economics Scientific Research Journal**" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El. pochta: journals@timeedu.uz

Tel.: [+998 95 651 90 00](tel:+998956519000)

"Management and Economics Scientific Research Journal" jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami: C-5669639
PNFL: 308906510

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani
Shota Rustaveli ko'chasi, 114